

ONLAYN TA’LIM TIZIMLARIDA SIFAT NAZORATINI TASHKIL ETISH

Nosirova Sanabarxon Abdinabiyevna

Kalit so`zlar: *samaradorlik, faoliyat, sifat, ta`lim, baholash, nazorat, bilim, jarayon, tizim, imkoniyat.*

KIRISH

Sifat nazorati — bu ta’lim jarayonining sifatini baholash, monitoring qilish va yaxshilash uchun amalga oshiriladigan tizimli faoliyat. Onlayn ta’limda sifat nazorati o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlash, o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash va o‘qituvchilarning faoliyatini baholashda muhim rol o‘ynaydi.

Mustaqil O’zbekistonimizda ta’lim tizimi tubdanisloq qilinmoqda. O’zbekistonda ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag‘lar yo‘naltirilmoqda. Maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim tizimlari, ilmiytadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda. Shu jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

— Biz ustozni otaday ulug‘ deb bilgan, doimo ardoqlagan ma’rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o‘qituvchi, muallim deganda o‘zim uchun eng aziz va hurmatli bo‘lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta’lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan, — dedi davlat rahbari yig‘ilish avvalida. Bugungi kunda O’zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko‘makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir.

Bugungi kunda dunyo miqiyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivojlanayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta’lim jarayoniga ham kirib kelib, ta’limni yanada sifatli tashkil etishga o‘z ta’sirini ko’rsatayotganligi barchamizga ma’lum. Axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanib darslarni tashkil qilish borgan sari ommalashib bormoqda. Axborot kommunikatsiya vositalarini ommalashishiga asosiy sabablar qilib inovatsion axborot texnologiyalarida amallar bajarish qulay, axborotlarni almashish uchun turli xil masofalarni bosib o’tishni talab qilmaydi, axborotlarni birini ikkinchisi bilan taqqoslash imkoniyati mavjudligi va shunga o’xshash bir qancha imkoniyatlarni aytish mumkin.

Onlayn ta’limda sifat nazoratining asosiy yo‘nalishlari

Ta’lim mazmuni va materiallari sifati

- Darsliklar, video va audio materiallar, testlar va topshiriqlarning sifatini baholash.

- Materiallarning zamonaviyligi, dolzarbliji va interaktivligi.

Ta’lim jarayonining tashkiliy sifati

- Onlayn platformaning ishonchliligi va qulayligi.
- O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi samarali muloqot.
- Darslarning rejalashtirilishi va vaqtida o‘tkazilishi.

O‘quvchilarning bilim darajasi va rivojlanishini baholash

- Testlar, viktorinalar, mustaqil ishlar va loyihalar orqali nazorat.
- Formativ va summativ baholash tizimlarini joriy etish.

O‘qituvchilarning malakasi va faoliyati

- O‘qituvchilarning malaka darajasi va doimiy rivojlanishi.
- Darslarni interaktiv va samarali o‘tish usullarini qo‘llash.

Texnik va axborot xavfsizligi

- Platformaning barqaror ishlashi.
- Ma’lumotlarning maxfiylici va himoyasi.

Sifat nazoratini tashkil etish usullari

Avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari

- O‘quvchilarning faoliyati va natijalarini avtomatik tahlil qilish.
- Test natijalari va dars qatnashuvini kuzatish.

O‘z-o‘zini baholash va o‘quvchilar fikri

- O‘quvchilarning o‘z bilimlarini baholashi.

Doimiy malaka oshirish va treninglar

- O‘qituvchilarning yangi metod va texnologiyalarni o‘rganishi.
- Sifatli ta’limni ta’minlash uchun seminar va kurslar tashkil etish.

Sifat nazoratining afzallikkleri

- Ta’lim sifatini doimiy yaxshilash.
- O‘quvchilarning muvaffaqiyat darajasini oshirish.
- O‘qituvchilar faoliyatini samarali boshqarish.
- Onlayn ta’lim tizimining obro‘sini oshirish.